



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 6-sentabr

447-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 4-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Imom Termiziy tavalludining 1200 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” 2024-yil 15-avgustdagi PQ-292-son qarori ijrosini ta‘minlash haqida”gi 411-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Imom Termiziy tavalludining 1200 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” 2024-yil 15-avgustdagi PQ-292-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 4-sentabrdagi 411-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

### QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 4-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Imom Termiziy tavalludining 1200 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” 2024-yil 15-avgustdagi PQ-292-son qarori ijrosi haqida”gi 411-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, O‘zbekiston musulmonlar idorasi, Surxondaryo viloyat hokimligi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2024-yil oktyabr oyida Imom Termiziy tavalludining 1200 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida taklifi ma‘qullanganligi;

Imom Termiziy tavalludining 1200 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlarni o‘tkazish va davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tuzilganligi hamda uning tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Tashkiliy qo‘mita tomonidan Imom Termiziy tavalludining 1200 yilligini yuqori saviyada nishonlash bo‘yicha, jumladan, quyidagilarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlanganligi e‘tiborga olinsin:

Imom Termiziyning “Ash-Shamol al-Muhammadiya” va “Sunani Termiziy” asarlarini moturidiylik aqidasi va hanafiylik mashabiga tayangan ko‘p jildlik akademik tarjima va sharhini tayyorlash hamda ularni nashr etish;

Imom Termiziy hayoti va ilmiy merosining mohiyatini va bugungi kundagi ahamiyatini ochib beruvchi ilmiy-ommabop hujjatli film yaratish va sahnalashtirilgan spektakl namoyishini tashkil etish;

Imom Termiziy tavalludining 1200 yilligiga bag‘ishlangan esdalik suvenirlarini muomalaga chiqarish hamda pochta markalari, taqvimlar, uning hayoti va ilmiy merosini yoritib beruvchi boshqa ko‘gazmali axborot vositalari turkumini yaratish;

2024-yil oktabr oyida Toshkent shahrida “Islom – tinchlik va ezgulik dini” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya hamda konferensiya doirasida Termiz shahrida “Imom Termiziy ilmiy merosining islom sivilizatsiyasida tutgan o‘rni” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazish;

Imom Termiziy ziyoratg‘ohiga olib boruvchi yo‘l infratuzilmalarini yaxshilash, jumladan, yodgorlik majmuasi va unga tutash hududlarni obodonlashtirish;

Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi Imom Abu Iso at-Termiziy majmuasida Imom Termiziy va termiziy allomalarning hayoti, ilmiy va ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan asarlarning nodir qo‘lyozma va nashr nusxalari hamda kitoblarning ko‘rgazmasini tashkil etish.

3. Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning tuman bo‘yicha bosh mutaxassisi I.Nishonov, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi tuman bo‘limi (D.Jo‘raboyeva), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (M.Mamasobirov), “Mingbuloq” gazetasi (Q.Akbarov) bilan birgalikda joylarda 2024-yil davomida Imom Termiziyning ilmiy merosiga bag‘ishlangan davra suhbatlarini tashkil etsin.

4. “Mingbuloq” gazetasi (Q.Akbarov)ga va tuman hokimligi ahborot xizmati (Sh.Kenjayev)ga Imom Termiziy tavalludining 1200 yilligini keng nishonlash bilan bog‘liq tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**